

LINGVISTIKANING ZAMONAVIY USULLARI: KORPUS TAHLILI VA UNING AFZALLIKLARI

Abdullayeva Iroda Sharof qizi

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi, 2-ingliz fakulteti, 1- kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada lingvistikaning zamonaviy tahlil usullaridan biri bo'lgan korpus tahlili ko'rib chiqiladi. Korpus lingvistikasi- tilni real hayotdan yig'ilgan matnlar asosida tahlil qilishga asoslangan zamonaviy yondashuv bo'lib, u obyektiv va ilmiy asoslangan natijalar olish imkonini beradi. Tadqiqotda korpus turlari va ularning tadqiqotdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Lingvistika, korpus, konkordans, kollokatsiyalar, subyektiv, idiomatik.*

Zamon shiddat bilan rivojlanib borgan bir davrda lingvistika sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunda zamon talabidagi tahlil usullaridan biri – korpus tahlili bosh yordamchi rolini bajarmoqda desam mubolag'a bo'lmaydi. Korpus kompyuterning ma'lumotlar bazasida saqlanuvchi og'zaki va yozma matnlar majmui. Korpusda yig'ilgan materiallarning aniq yozilgan vaqti, qaysi uslubga mansubligi, qaysi manbaga tegishliligi ham batafsil yoritilgan bo'ladi. Foydalanuvchi o'zining qiziqishlariga qarab xohlasin badiiy, xohlasin ilmiy, xohlasin rasmiy yoki publististik uslubdagi matnlarga murojaat qila oladi. Bu til o'rganishda, ayniqsa juda ham katta naf keltiradi. Maktab ta'limida dars jarayonida o'quvchilarga bilimlarini mustahkamlashda, topshiriqlarni tezkorlik bilan berishda pedagoglarga anchayin qo'l keladi.

Ta'kidlash mumkinki, korpus qamrovi juda keng, salmoqdorlik darajasi yuqori bo'lgan tizimlashtirilgan kutubxonadir. Ilk korpusning yaratilishi 1812 yilga borib taqaladi, bunda nemis olimi Kadling o'zining nemis so'zlaridagi undosh harflar distibutsiyasini tahlil qilgan. Korpus nafaqat lingvistik tadqiqotchilar uchun , balki lug'atlar va ma'lumotnoma grammatikalarini tuzishda ham qo'llangan. Bu amaliyot 1969- yilda “The American Heritage Dictionary of English Language” nomli lug'at bilan boshlandi va 1985- yilda “A Comprehensive Grammar of the English Language” grammatik qo'llanmasi nashr etilishi bilan davom etdi. Korpuslar yozma va og'zaki matnlarni o'z ichiga oladi va ularning avtomatik qayta ishlanishini ta'minlaydi.

Korpuslarning asosiy xususiyatlari:

1. Katta hajmdagi ma'lumotlar: korpuslar millionlab so'zlar va iboralarni o'z ichiga oladi
2. Turlilik: korpusda har xil uslubiy va janrdagi matnlar kiritiladi (adabiy, ilmiy, kundalik)
3. Aniqlik va statistik tahlil imkoniyatlari: korpusda olingan ma'lumotlar aniq sonlar va andozalarga asoslanadi.

Zamonaviy korpuslarning turlari va ulardan foydalanish:

1. Milliy korpuslar: o'zbek milliy korpusi; Britaniya milliy korpusi (BNC), Amerika ingliz tili korpusi (COCA)
2. Parallel korpuslar: Turli tillardagi matnlarni o'zaro taqqoslash uchun ishlatiladi.
3. Ixtisoslashgan korpuslar: Biror bir soha yoki janrga oid matnlar to'plami (tibbiy, texnik, huquqiy va boshqalar).

Uning afzalliklariga kelsak, korpus tahlili orqali tilni aniq va obyektiv o'rganish mumkin. Korpus tahlili til hodisalarini subyektiv yondashuvlarsiz, real matnlardan olingan ma'lumotlar asosida o'rganishga imkon beradi. Masalan so'zlarning tez-tez ishlatilishi, kollokatsiyalar, idiomatik iboralar va grammatik strukturalar tahlil qilinadi.

Korpus lingvistikasi usullari:

Buning usullari ko'p. Ulardan ba'zilarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, **Konkordans tahlili**. Bu usul matndagi biror so'z yoki iboraning kontekstini tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, "Freedom" so'zi qanday so'zlar bilan birgalikda ishlatilganini aniqlash. Bu tahlil usulining natijasi avtomatik tarjima tizimining bir qismi sifatida yoki mashina tarjimasining dastlabki bosqichlarida tarjima xotirasiga kirish ma'lumotlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Konkordanserlar korpus tilshunosligida ba'zi bir matn korpusidan lingvistik ma'lumotlarning alifbo tartibida yoki boshqacha tartiblangan ro'yxatini olish uchun qo'llanadi, keyinchalik tilshunoslar uni tahlil qiladi.

Statistik tahlil. Bu usul so'z va iboralar chastotasi hisoblanadi. Masalan "The" artikli ingliz tilidagi eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biridir.

Bu soha nafaqat tilshunoslikni balki ta'lim, tarjima, sun'iy intellekt va boshqa ko'plab yo'nalishlarni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Shu bilan birga korpus tahlili lingvistika sohasida yetakchi mavqega ega bo'lib, til o'rganish va tadqiq qilishda inqilobiy yondashuv hisoblanadi.

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Journal of Corpus Linguistics
2. "Sketch engine" sayti
3. "ResearchGate" platformasi
4. Elov Botir Boltaboyev- "O'zbek tilining ta'limiy korpusi"
5. "CyberLeninka" sayti